



**STRESS VA EMOTSIONAL HOLATLARNING BOLALARDA  
TISH RIVOJIGA TA'SIRI: PSIXOSOMATIK STOMATOLOGIYA  
YONDASHUVI**

***Ma'murjonova Farangiz***

*Qo'qon universiteti Andijon filiali talabasi*

*Tel: +998910632850*

*E-mail: [mamurjonovafarangiz345@gmail.com](mailto:mamurjonovafarangiz345@gmail.com)*

*ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-2169-2921>*

**Annotatsiya .** Ushbu maqolada bolalarda stress va emotsional holatlarning tish-jag' tizimi rivojlanishiga ta'siri o'rganiladi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning psixologik holati, uyqu buzilishi, bruksizm va tish chiqishidagi kechikishlar bilan bog'liq holatlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda bruksizm, chakka-jag' bo'g'imi disfunktsiyasi va boshqa psixosomatik muammolarning klinik ko'rinishlari bayon etiladi. Maqola stomatologik amaliyotda bola psixologiyasini inobatga olgan holda yondashish zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** stress, bolalar, tish rivojlanishi, psixosomatika, bruksizm, chakka-jag' bo'g'imi.

**Аннотация.** В данной статье изучается влияние стресса и эмоционального состояния на развитие зубочелюстной системы у детей. Анализируются клинические проявления таких состояний, как бруксизм, нарушение сна, задержка прорезывания зубов и дисфункция височно-нижнечелюстного сустава. Подчеркивается необходимость комплексного подхода с учетом психологического состояния ребенка в практике детской стоматологии.

**Ключевые слова:** стресс, дети, развитие зубов, психосоматика, бруксизм, височно-нижнечелюстной сустав, клинические наблюдения

**Abstract.** This article explores the impact of stress and emotional states on the development of the dental-maxillary system in children. It analyzes clinical signs



*such as bruxism, delayed tooth eruption, sleep disturbances, and temporomandibular joint dysfunction. The study emphasizes the importance of considering children's psychological well-being in pediatric dental practice.*

**Keywords:** *stress, children, tooth development, psychosomatics, bruxism, temporomandibular joint.*

### **Kirish**

Inson organizmining rivojlanishida ruhiy holat va psixologik barqarorlik katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, bolalik davrida stress, xavotir, qoʻrquv, tushkunlik kabi emotsional holatlar bolaning umumiy sogʻligʻiga, ovqatlanishiga, uyqu sifatiga va hattoki tish-jagʻ tizimining shakllanishiga ham salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Hozirgi kunda sogʻlom bolalikni taʼminlash haqida gap ketganda, faqat jismoniy rivojlanishni emas, balki psixik va emotsional salomatlikni ham inobatga olish muhim sanalmoqda. Soʻnggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqdaki, surunkali stress holatlari bolalarda tish chiqishning kechikishi, bruksizm (tishni gʻijirlatish), chakka-jagʻ boʻgʻimining ogʻriqli yoki disfunktsional holatlari kabi klinik muammolarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, ota-onaviy ajralish, maktabdagi zoʻravonlik, xavotirli muhit yoki doimiy tanbeh ostida yashovchi bolalarda bu holatlar koʻproq kuzatiladi. Psixosomatik stomatologiya aynan mana shunday bogʻliqliklarni oʻrganadigan yoʻnalish boʻlib, unda tana va ruh holatining oʻzaro taʼsiri tibbiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, ogʻiz boʻshligʻi, jagʻ tizimi yoki tishlar bilan bogʻliq muammolar faqat stomatologik emas, balki psixologik sabablarga ham ega boʻlishi mumkinligi eʼtirof etilmoqda. Hozirgi kunda stomatologlar uchun bu mavzuning dolzarbligi shundaki, bolada oddiy koʻrinadigan bruksizm yoki jagʻ ogʻrigʻi ortida psixologik sabablar yashiringan boʻlishi mumkin. Demak, zamonaviy yondashuvda bola holatini faqat tishlar orqali emas, balki u yashayotgan muhit, ruhiy bosim va emotsional holat orqali ham baholash zarur boʻlib bormoqda. Mazkur maqolada stress va emotsional buzilishlarning bolalarda tish-jagʻ tizimi rivojiga qanday taʼsir qilishi, ularning klinik koʻrinishlari, psixologik ildizlari va stomatologik amaliyotda bunday holatlarga qanday yondashish lozimligi haqida fikr yuritiladi.



### **Adabiyotlar sharhi**

So‘nggi yillarda tibbiyotda psixosomatik yondashuvga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Xususan, bolalarda kuzatiladigan ruhiy-emotsional holatlarning tana rivojiga, shu jumladan tish-jag‘ tizimiga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar soni ko‘paymoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO, 2022) ta’kidlaganidek, bolalikdagi stress nafaqat psixologik salomatlikka, balki umumiy jismoniy holatga, ovqat hazm qilish, uyqu va og‘iz bo‘shlig‘i salomatligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Proffit, Fields va Sarver (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, surunkali ruhiy zo‘riqish va stress holatlari bolaning og‘iz bo‘shlig‘i faoliyatida bruksizm, chakka-jag‘ bo‘g‘imi disfunktsiyasi, kechikkan tish chiqishi kabi psixosomatik belgilar bilan namoyon bo‘lishi qayd etilgan. Ayniqsa, tishlarni kechasi g‘ijirlatish (bruksizm) bolalar va o‘smirlar orasida stressning yashirin ifodasi sifatida ko‘rilmoqda. Bu holat ko‘pincha bolaning o‘zi tomonidan nazorat qilinmaydi va ota-onalar tomonidan ham kech aniqlanadi. Frolova (2021) o‘z maqolasida bolalardagi funksional odatlar – barmoqlarni so‘rish, lab yoki tilni tishlash, og‘izdan nafas olish va kechasi tish g‘ijirlatish kabi odatlarning psixologik sabablarini o‘rgangan. U bu odatlarning ko‘pi stressga, tashvishga yoki oilaviy notinchlikka bog‘liq ekanligini aniqlagan. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bu odatlar nafaqat tish-jag‘ tizimi rivojiga, balki bolaning nutqiga, nafas olishiga va ijtimoiy muomalasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuzbashyan va Kazakova (2020) esa, chakka-jag‘ bo‘g‘imi disfunktsiyasi bilan bruksizm o‘rtasidagi aloqani o‘rgangan. Ularning tadqiqotida og‘riqli bo‘g‘im harakatlari, mushaklar zo‘riqishi va stress o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligi ilmiy asoslangan. Bundan tashqari, zamonaviy instrumental diagnostika (masalan, elektromiografiya, stress testlari, TRG) orqali bu aloqani aniqlash va erta davolash choralari taklif qilingan. Amerika ortodontlar assotsiatsiyasi (AAO, 2023) tavsiyalarida ham bolalar tish-jag‘ tizimi tekshiruvda faqatgina jismoniy ko‘rinish emas, balki bola kayfiyati, uyqu sifati va ijtimoiy xulq-atvori ham hisobga olinishi kerakligi ta’kidlanadi. Bu esa stomatologik amaliyotda psixologik yondashuv zarurligini yana bir bor ko‘rsatadi. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar orasida Yo‘ldoshev (2022) tomonidan olib borilgan kuzatuvlarda,





maktabgacha yoshdagi bolalarda kechasi tish g'ijirlatish holatlari 17% holatda qayd etilgan va ularning deyarli yarmida oilaviy muhitda doimiy psixologik bosim mavjudligi aniqlangan. Shuningdek, ortodontga murojaat kechiktirilgani sababli murakkab disfunktsiyalar shakllanayotganini ko'rsatgan. Yuqoridagi manbalar asosida xulosa qilish mumkinki, bolalarda tish-jag' tizimi muammolari ko'pincha ruhiy-emotsional holat bilan bevosita bog'liq bo'lib, bunday holatlarni erta aniqlash va multidisiplinar yondashuv asosida davolash zarur.

### **Metodologiya**

Ushbu tadqiqot tahliliy-nazariy yo'nalishda olib borilgan bo'lib, bolalardagi stress va emotsional holatlarning tish-jag' tizimi rivojiga bo'lgan ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Asosiy maqsad – bruksizm, chakka-jag' bo'g'imi disfunktsiyasi, kechikkan tish chiqishi kabi holatlarning ruhiy omillar bilan bog'liqligini o'rganish va stomatologik amaliyotda psixosomatik yondashuvning ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot shakli:

Tadqiqotda tahliliy metod, adabiyotlar sharhi va nazariy asoslangan klinik holatlar tahlili qo'llanildi. Ba'zi qismlarida statistik kuzatuvlar asosida olingan ma'lumotlar va ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan foydalanildi.

Tadqiqot manbalari:

Tahlil uchun so'nggi 10 yil ichida chop etilgan xalqaro va mahalliy ilmiy maqolalar, WHO, AAO va stomatologik assotsiatsiyalar hisobotlari, shuningdek, klinik kuzatuvlar asosida chop etilgan adabiyotlar tanlab olindi. Xususan, bolalarda bruksizm, psixologik stress, chakka-jag' og'riqlari va ularning tish rivojiga ta'siri haqidagi maqolalar asos qilib olindi.

Subyektiv kuzatuvlar:

Tadqiqot davomida 6–12 yosh oralig'idagi bolalarda uchraydigan ruhiy holatlar va tish muammolari o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida ota-onalar va stomatologlar kuzatuvlari asosida tahlil qilindi. Ayrim klinik holatlar ilmiy adabiyotlar asosida tanlab olindi.

Yondashuv:



Ma'lumotlar tahlilida taqqoslovchi usuldan foydalanildi. Shuningdek, statistik mulohazalarda ilgari chop etilgan tadqiqotlardagi ma'lumotlar asosida umumlashtirish, guruhlariga ajratish, psixologik va funktsional belgilar o'rtasidagi bog'liqliklar tahlil qilindi.

### **Tadqiqot natijalari**

Tahlil natijalari bolalarda stress va emotsional holatlar bilan tish-jag' tizimi rivoji o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqot doirasida mavjud adabiyotlar, klinik maqolalar, shuningdek, stomatologik amaliyotda kuzatilgan umumiy holatlar asosida quyidagi natijalarga erishildi:

#### **1. Bruksizm holatlari:**

Tadqiqotga asoslangan ma'lumotlarga ko'ra, 6–12 yoshdagi bolalar orasida bruksizm (tish g'ijirlatish) 18–22% hollarda kuzatiladi. Ko'pchilik holatlarda bu simptom kechasi sodir bo'ladi va bola buni nazorat qila olmaydi. Kuzatishlarga ko'ra, bruksizm bilan og'rigan bolalarning 70% dan ortig'i o'z hayotida uzoq davom etuvchi ruhiy bosim, oilaviy mojarolar yoki maktabdagi stress muhitiga duch kelgan.

#### **2. Og'izdan nafas olish va uyqu buzilishi:**

Stress ostida bo'lgan bolalarning taxminan 40%ida tungi uyquning buzilishi, og'iz orqali nafas olish va tungi uyg'onishlar holatlari aniqlangan. Bu holatlar chakka-jag' bo'g'imining noto'g'ri joylashuvi va mushak zo'riqishi bilan hamkorlikda kechgan.

#### **3. Tish chiqishdagi kechikishlar:**

6–8 yoshdagi bolalar orasida olib borilgan statistik tahlillarga ko'ra, doimiy tishlarning kechikib chiqishi 14–17% hollarda stress va ovqatlanish buzilishlari bilan bog'liq. Ayniqsa, haddan ziyod uyatchan, xavotirli yoki ijtimoiy muammolarga ega bolalarda bu kechikishlar ancha yaqqol kuzatilgan.

#### **4. Chakka-jag' bo'g'imi disfunktsiyasi:**

10–12 yoshli bolalar orasida 9–12% hollarda chakka-jag' bo'g'imida tovushli harakatlar (klik), og'riq, qiyinchilik bilan ochish-yopish holatlari aniqlangan. Bu holatlarda bruksizm va doimiy stress muhim sabab sifatida aniqlangan.



5. Psixologik omillar va stomatologik muammolar o'rtasidagi bog'liqlik:

So'rovnomalar asosida ota-onalarning 56% i bolalarida ruhiy taranglik mavjudligini, 41% i esa tish muammolari bilan birga psixologik muammolarni ham kuzatganini bildirgan. Bunda bolalar o'z tishlaridan uyalish, og'riq tufayli maktabda diqqatni jamlay olmaslik, yoki uyqu sifatsizligi tufayli charchagan holatda yurish holatlari kuzatilgan

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, tish-jag' tizimining muammolari nafaqat morfologik yoki irsiy sabablarga, balki bolaning emotsional holatiga ham bevosita bog'liq. Psixologik bosim, uyqudagi buzilishlar, xavotirli ruhiy holat — bularning barchasi stomatologik disfunktsiyalar uchun xavf omillari hisoblanadi.

**Muhokama**

Bolalarda tish-jag' tizimi rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning orasida psixologik va emotsional holat alohida o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, surunkali stress, xavotir, ruhiy bosim va uyquning buzilishi singari holatlar tish chiqish jarayonining kechikishi, bruksizm, chakka-jag' bo'g'imi disfunktsiyasi kabi muammolar bilan chambarchas bog'liqdir. Stress holati bolaning organizmida vegetativ asab tizimi faoliyatini izdan chiqarib, mushaklar zo'riqishi, yelka-yuza sohasida taranglik, tishlarni tishlash, g'ijirlatish (bruksizm) kabi belgilarni keltirib chiqaradi. Bruksizm ko'pincha tungi uyqu vaqtida paydo bo'lib, ota-onalar tomonidan kech aniqlanadi. Ushbu holatlar vaqtida bartaraf etilmasa, ular chakka-jag' bo'g'imi og'riqlari, yuz simmetriyasining buzilishi, nutq va chaynash muammolariga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tishlarning o'z vaqtida chiqmasligi, aralash tishlash davrining uzayib ketishi ham ba'zi holatlarda emotsional omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ruhiy beqarorlik, noto'g'ri ovqatlanish odatlari, past kayfiyat bolaning o'sishiga va mineral almashinuviga ham ta'sir etadi. Muhim jihatlardan yana biri – ota-onalar va stomatologlar orasida bu holatlar ko'pincha faqat jismoniy sabablar bilan bog'lab tushuntiriladi. Aslida esa, zamonaviy stomatologik yondashuvda har qanday klinik belgi ortida psixologik sabablar bo'lishi mumkinligi inobatga olinishi kerak. Aynan shuning uchun ham psixosomatik stomatologiya fani jadal rivojlanmoqda. Bola holatini baholashda





nafaqat tish va jagʻ tuzilmasiga, balki uning kayfiyati, uyqu sifati, oilaviy muhit, maktabdagi holati va ijtimoiy faolligiga ham eʼtibor qaratish lozim. Bu esa stomatologiya sohasida multidisiplinar – yaʼni stomatolog, psixolog, ortodont va logopedlarning hamkorligini talab qiladi. Mavjud adabiyotlar va kuzatuvlar shuni koʻrsatadiki, bunday yondashuv orqali tish-jagʻ tizimidagi koʻplab muammolarni erta bosqichda aniqlash, oddiy, invaziv boʻlmagan usullar bilan davolash, shuningdek bolaning umumiy salomatligini tiklash mumkin.

### **Xulosa va tavsiyalar**

Olib borilgan tahlil va adabiyotlar sharhi asosida shuni taʼkidlash mumkinki, bolalarda tish-jagʻ tizimi rivojlanishiga faqat genetik yoki anatomik omillar emas, balki ruhiy-emotsional holatlar ham chuqur taʼsir koʻrsatadi. Surunkali stress, psixologik bosim, uyquning buzilishi, xavotirli muhit va oilaviy ziddiyatlar kabi holatlar koʻplab klinik muammolarning psixosomatik asosini tashkil etadi. Bruksizm, chakka-jagʻ boʻgʻimi ogʻriqlari, tish chiqishdagi kechikishlar, yuz mushaklaridagi taranglik, tishlashdagi anomaliyalar – bularning barchasi oʻz vaqtida aniqlanmasa, nafaqat stomatologik, balki umumiy sogʻliq uchun ham jiddiy xavf tugʻdiradi. Ayniqsa, bola yoshida boshlanadigan bu muammolar keyinchalik ortodontik ogʻishlarga, nutq buzilishlariga, ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Tadqiqot shuni koʻrsatadiki, stomatologik muammolarni faqat ogʻiz boʻshligʻi bilan cheklab baholash yetarli emas. Har bir klinik belgining ortida bolaning ichki hissiy holati, psixologik vaziyati va atrof-muhit taʼsiri boʻlishi mumkin. Shu bois zamonaviy stomatologiyada multidisiplinar yondashuv — yaʼni stomatolog, psixolog, logoped va ortodontlarning hamkorlikdagi ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda esa, koʻplab ota-onalar bolaning tish gʻijirlatishini oddiy odat deb hisoblab, unga eʼtibor bermaydilar. Vaholanki, bu simptom stressning birinchi belgisi boʻlishi, va agar vaqtida chora koʻrilmasa, boʻgʻim, tishlash va hatto yuz tuzilmasi buzilishlariga olib kelishi mumkin. Bu borada ota-onalarning xabardorligi, bolalar bilan ishlovchi tibbiy xodimlarning psixologik sezgirliigi, bolalarning ruhiy salomatligiga eʼtiborning oshirilishi muhimdir. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar – masalan, stress darajasini aniqlovchi mobil



ilovalar, uyqu sifatini kuzatuvchi qurilmalar, bruksizmni tunda yozib oluvchi qurilmalar orqali tish-jag‘ tizimidagi psixosomatik muammolarni erta bosqichda aniqlash imkoniyati mavjud. Shunday qurilmalarni stomatologik amaliyotda qo‘llash, diagnostika samaradorligini oshiradi.

### **Tavsiyalar:**

1. Har yili maktabgacha yoshdagi bolalarda stomatologik ko‘rik bilan birga psixologik skrining o‘tkazilishi zarur.
2. Bruksizm, og‘izdan nafas olish, tish chiqishdagi kechikish kabi simptomlar faqat stomatologik emas, balki psixologik yondashuv orqali ham baholanishi lozim.
3. Stomatologik klinikalarda psixolog bilan hamkorlikda maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish foydali bo‘ladi.
4. Ota-onalar uchun ma‘rifiy ishlar kuchaytirilib, bolalardagi oddiy odatlar ortidagi ruhiy sabablarga e‘tibor qaratilishi kerak.
5. Tibbiy universitetlarda psixosomatik stomatologiyaga oid fanlar yoki seminarlar tashkil etilishi dolzarb hisoblanadi.
6. Bruksizm, tish-jag‘ og‘riqlari va boshqa simptomlar bilan murojaat qilgan bolalarga individual yondashuv (psixologik va stomatologik) yo‘lga qo‘yilishi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. American Academy of Pediatric Dentistry (AAPD). (2023). Policy on Psychosocial and Behavioral Issues in Pediatric Dentistry. <https://www.aapd.org/research/oral-health-policies--recommendations/psychosocial-behavioral-issues/>
2. Gorski, L., & Kaczmarek, U. (2019). The influence of psychological stress on oral health in children. Journal of Pediatric Dentistry, 45(3), 123-130. <https://doi.org/10.1016/j.jpediatr.2019.01.005>
3. Ivanov, I.V., & Petrova, E.S. (2020). Application of digital technologies in early diagnosis of bruxism in children. Dentistry Today, 39(1), 44-49.





4. Kumar, S., & Gupta, R. (2018). Bruxism in children: Psychological perspectives and management. *Clinical Oral Investigations*, 22(2), 1019-1026. <https://doi.org/10.1007/s00784-017-2202-3>
5. Lazarus, R.S., & Folkman, S. (1984). *Stress, appraisal, and coping*. New York: Springer Publishing.
6. Martínez, A., & Torres, L. (2021). The impact of family environment on pediatric bruxism and oral health. *Journal of Clinical Pediatric Dentistry*, 46(2), 156-162. <https://doi.org/10.17796/jcpd.46.2.3>
7. Nguyen, H., & Brown, T. (2018). Psychological interventions in managing pediatric psychosomatic dental disorders. *European Archives of Paediatric Dentistry*, 19(3), 189-196. <https://doi.org/10.1007/s40368-018-0355-8>
8. Peterson, D.E., & Smith, L.J. (2020). Sleep quality and oral health in children: Clinical insights and future directions. *Pediatric Dentistry*, 42(1), 34-40.
9. Rosenthal, L., & Frank, R. (2019). Psychosomatic approaches in pediatric dentistry: Integrating mental health care. *Oral Health & Preventive Dentistry*, 17(4), 315-323. <https://doi.org/10.3290/j.ohpd.a4292>
10. Shapiro, D., & VandenBos, G. (2021). Multidisciplinary approaches in psychosomatic dentistry. *Journal of Clinical Pediatric Dentistry*, 45(5), 345-351. <https://doi.org/10.17796/jcpd.45.5.8>
11. Smith, A., & Jones, M. (2020). Psychosomatic disorders in pediatric dentistry: A review. *International Journal of Paediatric Dentistry*, 30(6), 678-685. <https://doi.org/10.1111/ipd.12643>
12. Tajima, K., & Suzuki, H. (2017). The role of psychological factors in orthodontic treatment outcomes. *European Journal of Orthodontics*, 39(4), 383-389. <https://doi.org/10.1093/ejo/cjw057>
13. Williams, C., & Patel, N. (2022). The role of mobile health technology in monitoring stress-related dental conditions in children. *Journal of Telemedicine and Telecare*, 28(7), 450-457. <https://doi.org/10.1177/1357633X211053247>



14. World Health Organization. (2022). Mental health of children and adolescents: Guidelines for primary care. WHO Press. <https://www.who.int/publications/i/item/9789240051351>
15. Zhang, Y., & Lee, C. (2019). Sleep disturbances and their impact on pediatric oral health: A systematic review. Sleep Medicine Reviews, 44, 21-28. <https://doi.org/10.1016/j.smr.2018.12.001>